



SAFARNOMALARDA MUALLIF SHAXSI

Akbar Nurmatov

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
Kommunikatsiyalar universiteti*

Bosma OAV va noshirlik ishi

*fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy-publitsistik ijodning eng qadimiy turlaridan biri hisoblangan safarnomalar, muallif tomonidan bosib o'tilgan yo'l, safar haqidagi tasvirlar va uning asosiy xususiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sayohat jurnalistikasi, fabula, «favqulodda vazifalari», yo'l kuzatuvlari, peyzaj, detal, tafsilot.*

Аннотация: *В статье анализируются путевые очерки, считающиеся одним из древнейших видов художественно-публицистические жанры, путь, пройденный автором, образы путешествия и ее основные черты.*

Ключевые слова: *трэвел-журналистика, фабула, «экстренные миссии», дорожные наблюдения, пейзаж, деталь, подробность.*

Abstract: *This article analyzes travelogues, which are considered one of the oldest types of fiction, the path taken by the author, images of the trip, fable and its main features.*

Key words: *travel journalism, fabula, "emergency missions", road observations, landscape, detail, detail.*

Bir necha ming yillar davomida rivojlanib, adabiyot, san'at va publitsistikaning eng muhim tarkibiy qismiga aylangan safarnomaning tug'ilish, shakllanish davrini to'la va aniq kuzatish anchagina qiyin. Bizgacha qadimgi safarnomalarning ko'pchiligi yetib kelmagan. Fan bu yodgorliklardan faqat ozginasini qo'lga kiritgan, ammo bo'lar ham unchalik to'la va aniq emas.

Safarnomalar badiiy adabiyotning eng qadimiy turlaridan biri hisoblangan. Nomining o'zi uning xususiyatini ko'rsatib turibdi. Ya'ni, muallif tomonidan bosib o'tilgan yo'l, safar haqidagi tasvirlardan tashkil topgan bo'ladi. Fabulaning oldindan belgilanganligi, qandaydir topshirilganligi uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Muallif guvoh bo'lgan yo'l kuzatuvlari, uchrashuvlar, voqea-hodisalar, yangi mamlakatlar, joylar, shaharlar haqidagi taassurotlar – shularning barchasi safarnoma muallifi uchun material bo'lib xizmat qiladi. Hayotiy materiallar, lavhalar safarnomalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu hayotiy materiallar yozuvchining tajribasi, qiziqishi, u





yoki bu hayotiy ehtirolari, uning qat'iy ijtimoiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. Bir qaraganda, turli sarguzashtlarga boy bo'lgan sayohat safarnomaning mazmun mohiyatini oldindan belgilab beradi. Lekin doimo ham unday emas. Bevosita tashqi taassurotlar asosiga qurilgan safarnomalar doimo o'zining «favqulodda vazifalari»ga, katta mavzusiga, yagona obraziga ega bo'ladi. Safarnoma yozuvchi kishi uni tashvishga solayotgan masalalarga javob berishi mumkin bo'lgan joylarga muljallab safarga chiqadi. O'zbek xalqi qadim zamonlardan beri uzga joylardagi hayotiy hodisalarning har xil ko'rinishlarini va shakllarini katta g'ayrat, tetiklik va favqulodda o'tkir zehn bilan idrok etib olish qobiliyatiga ega bo'lgan, uning maqsadini va g'oyaviy yo'nalishini aniq va ravshan ta'riflagan.

Sayohat jurnalistikasi - iste'molchiga sayohat haqida ma'lumot beradigan, tarix, geografiya, madaniyat, san'at, turizm, axloq va falsafa mavzulariga to'xtaladigan jurnalistikaning bir tarmog'idir. Bu jurnalistikaning juda qadimiy, doimiy ravishda kengayib borayotgan, ko'p qirrali sohasi hisoblanadi. Sayohat mavzusi - bu voqealar, muallif sayohati davomida uchrashgan odamlar bilan muloqotning tavsifi. Sayohat janrida ishlagan jurnalist hikoyachi rolini o'ynab, o'quvchilarga sayohatning barcha qiyinchiliklarini his qilishlariga va shu orqali ularning ijodiy sayohatiga sherik bo'lishga imkon beradi. Bu janrda yozaman degan kishi sayohat qilishni yaxshi ko'rishi, yangi joylarni kashf etishga intilishi va sayohat paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga moslashishga tayyor bo'lishi kerak

Mashhur sayohatchi, Afrika tadqiqotchisi Devid Livingiston «Sayohat qilish uni tavsiflashdan ko'ra ancha osonroq»¹ degan edi. Insonning tabiiy ehtiyojlari qatorida ma'naviy ehtiyoji ham doimo yonma-yon turadi. Ovqat yeyish, kiyim kiyish, uxlash, umuman harakat qilish qanchalik muhim bo'lsa, shu jarayonda insonning o'zini o'rab turgan olamni bilishga qiziqish ham ortib boraveradi. Buning uchun kitob o'qiydi, muloqot qiladi, boshqa faoliyat turlarini o'rganadi, atrofni kuzatadi. Shu ma'noda ma'naviy ehtiyojlarning ichida o'zi yashab turgan hududdan (qishloq, shahar,

¹ Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г/Давид Ливингстон. М.: Географгиз, 1955. — 392 с.





mamlakatdan) tashqarini ko'rishga bo'lgan ishtiyoq insonning ongli hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Bolalikda o'zi ko'rgan tog'ning ortida nima borligi, dalalar, poyonsiz kengliklarning chegarasi qayerdaligi, daryoning qayerdan boshlanishi va va qayerda tugashini bilishga qiziqmagan bola bo'lmasa kerak. Shundanmi, yo'lga, safarga bo'lgan ishtiyoq hamisha inosonni yangi manzillar sari chorlayveradi.

Safarnoma (sayohatnoma) janrida ijod qilgan mashhur ijodkorlar sifatida M.Behbudiy, A.Avloniy, N.Yovushev, Mannon Romiz, Oybek, Fafur Fulom, E.Vohidov, Vohid Zohidov, H.G'ulom, Jamol Kamol, X.Do'stmuhammad, M.Ali, A.Meliboyev va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ushbu ijodkorlarning barchasi sayohat xotiralarini yozishda o'ziga xos, individual tarzda yondashishgan bo'lsada, lekin, ushbu janrning asosiy o'zgarma qonuniyatlarini doimo hisobga olishgan.

Safarnomaning asosiy belgilaridan biri – bu tasvirlarning izchil va ketma-ket kelishidir. Muallif qishloqdan qishloqqa, shahardan shaharga, mamlakatdan mamlakatga sayohat qilib, bosqichma-bosqich faktlar va taassurotlari bilan o'rtoqlashadi. Ushbu taassurotlar gohida bitta shahar yoki marshrut haqidagi tanishuvlar bo'lishi mumkin. Misol uchun shaharni tasvirlamoqchisiz. Uncha katta bo'lmagan, biroq qandaydir ajoyib shahar. Sizga turli joylardan sahnalar kerak bo'ladi: markaziy maydondan, bozordan, ko'ngilochar bog'dan, mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar va hatto qabristondan. Bu borada turli kasb, siyosiy maqom va yoshdagi odamlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tarixi ham sizning matningiz yanada sermazmun va jonli chiqishiga xizmat qiladi. Safar davomida uchragan yo siz to'qnash kelgan reallikning barcha murakkab muammolari quyiladi va ularni hal etish yo'llari ta'kidlab o'tiladi. Misol uchun Nushiravon Yovushevning "Sayohat parchalari" asaridan Avliyo ota shahri tasvirini olaylik. "...Inshoolloh shunday zotlarning sa'y va harakatlari soyasida Avliyo ota shahri ilm va maorif yo'liga tez qadam qo'ysa kerak. Munda g'azeta o'quvchilar xiyla ko'p ekan. Xudog'a shukur bular endi milliy matbuotning nima ekanini yaxshi fahm qila boshlaganlar. Tezda temur yo'l solinub, shaharlarning orasini yaqinroq qilub qo'ysa, ilm va madaniyatning bir shahardan ikkinchi shaharga sayohat qilishiga yo'l osonlanur. Sharqdan tolu' (paydo bo'lib – izoh A.N.) etub asrlardan so'ng G'arbga ko'chgan va hozirda G'arbdan tolu' etub yanada Sharqqa qarab qaytib kela boshlag'on madaniyat oftobining yorug'i tadriji (asta-sekin – izoh A.N.) bu yerlarni ham nurlandira boshlasa kerak. Faqat "Oxir





zamon alomati” deb ul yorug‘dan qo‘rqmaslik balki falakning jabri ila asrlarcha sayohatda yurgan o‘z sayyoximiz deb ani shodliq va xursandliq ila olishimiz lozimdir.²

Nushiravon Yovushev “Sayohat parchalari” nomli safarnomasida Sharqiy Turkistonda bir nechta shahar va qishloqlarni qiziqarli tarzda tavsiflaydi. O‘zining ko‘rganlarini boshdan to oxirigacha tasvirlaydi, shu jumladan portret lavhani ham; ularda qahramonlar xarakteri, harakat qilayotgan joydagi holatlari hikoya qilib beriladi. Masalan: Turfon shahrining bir chetida “Astona” degan qishloq bor ekanligi, u yerda “Doqiyoniz” (Daqqiyunus – izoh A.N.) dan qolgan ziyoratgohni shunday tasvirlaydi. “Ziyorat qiluvchilar juda ko‘p bo‘lur ekan. Biz borg‘onda ham shayxning eshugi oldida 50-60 ot turur edi. Shayxini as‘hob kahfga olub chiqdi. Kichikroq bir hujraning ichi qimmatli chitlar-tug‘lar to‘lg‘on. Shul hujraning bir burchagida g‘orning (as‘hob kahf ko‘rub yo‘qolg‘on g‘orning og‘zi emish) og‘zi bor. Men g‘orning ichiga kirmakchi bo‘lg‘on edim. Shayx ruxsat etmadi. Anda kirgan odam hasta bo‘la o‘ladi. Men xiyla kiraman deb ne qadar tor qolishsam ham shayx kirgizmadi. Aqcha beraman deb qaradim yo‘q deya senga ijozat bersak boshqa odamlar ham kira boshlar dey”.

Sayohatnomalarda muallif shaxsi yanada kuchli va yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Muallif pozitsiyasi, fikr-mulohazalari nafaqat tasvirlanayotgan narsalarni tushunishga, balki ularni, turli kartinalarni bir butun qissaga aylantirish imkonini yaratadi, ya'ni u syujetni harakatga keltiruvchi yagona kuch hisoblanadi. Buni M.Behbudiyning «Sayohat xotiralari», Nushiravon Yovushevning “Sayohat parchalari” Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati” kabi safarnomalarida mualliflarning taassurotlari va munosabatlari o‘sha manzaralarni yanada yorqinroq tasavvur qilish va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish imkonini yaratadi.

Safarnomaning imkoniyatlari cheksiz. Unda portret va voqeaviy ocherklarning vositalari ajoyib tarzda qorishib ketgan bo‘ladi. Masalan Behbudiyning sayohatga chiqqan turib, shahar va qishloqlar haqidagi lavhalarni birin-ketin tasvirlash bilan birga, u yerda yashovchi xalqlarning urf-odatlaridan tortib tashqi ko‘rinishlarigacha hikoya qilib beradi.

Muallif hikoya qahramonlaridan biri, barcha voqea-hodisalarning jonli guvohi, gohida esa birinchi kashfiyotchisi sifatida qatnashadi. «... Kislovodskig‘a yetduk. Bu shahar, taxminan, 20-30 ming xalqlikdir. To‘r-besh oshiyonalik mehmonxona va har

² “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914 yil 1 iyul, 23-son.





biri bizdagi «qulub» yoinki madrasalardan katta bir necha musulmon hammomlari, osti hammom, usti maozin, oning usti mehmonxonalar va bo'larg'a chiqmoq uchun «osonsur» (lift) moshinalari bino qilinibdur».³

Yo'l ocherkida detallar, tafsilotlar katta rol o'ynaydi. Ushbu unsurlarsiz na inson obrazini, na holatni, na harakat ko'rinishlarini tasvirlash mumkin. Bular avvalo, holatni tasvirlashga yordam beradigan parchali-peyzajlarda ko'rinadi. Peyzajdan harakat vaqtini belgilash vositasi sifatida foydalanilgan; ya'ni hodisalar ruy berayotgan sharoitlarni tasvirlash usuli sifatida; qahramonlar kayfiyatini berish sifatida va h.k.lar.

Peyzajning boshqa vazifalaridan biri – qahramonlar xarakterini ochib berish. Xususan, bu aynan yo'l ocherklarida yorqin namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, yo'l ocherklarida shunaqa peyzajli lavhalarining borligi janr xususiyatiga ham xos. Peyzajlar yordamida muallifko'rgan narsalarini tasvirlaydi, parchalar orqali esa ocherk mazmunini boyitadi. Portret ocherkda muayyan bir tasvir asosiy hodisaga aylanishi mumkin, lekin yo'l ocherkning butun matnida kuzatishlarning yoyilib yotishi yaxlit kartinani yaratishga xizmat qiladi.

Muallif o'z safarida ko'plab odamlar bilan uchrashadi, shuning uchun ham sayohatnomalarda portretli lavhalar uchraydi, lekin u portret ocherkdan farqli ularoq biroz boshqacha vazifani bajaradi. Shunday vazifalardan biri – safarni va safar davomida ko'rgan narsalarni batafsil tasvirlash, ya'ni asosiysi odamlar portretini chizmasdan, balki u muallifning umumiy rejasiga bo'ysindirilgan bo'ladi. Barcha janrlar orasida sayohatnoma anchayin shaxsiy janr xisoblanadi. Uning eng asosiy xususiyati - bu muallif «meni» ning faolligi, uning ocherk syujeti harakatidagi ishtirokining yuksak darajada rivojlanib borishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ayev O. Publitsistika janrlari. O'qituvchi. T.: 1976.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat. 1999.
3. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: 1979.
4. Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г/Давид Ливингстон. М.: Географгиз, 1955. — 392 с.
5. Шостак М.И. Журналист и его произведения. – М., 1998.
6. "Sadoi Turkiston" gazetasi 1914-yil 1-iyul, 23-son.

³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat. 1999. 59-bet.

